

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



Vaziyat

2024 йил
14 март
№ 11 (952)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

АЁЛ – МИЛЛАТ ДАВОМЧИСИ

Албатта, оила юмушлари, фарзанд тарбияси билан бирга, турли соҳа ва тармоқларда фидокорона хизмат қилаётган опа-сингилларимизнинг меҳнатини муносаб қадрлаш доимо давлатимиз эътиборида бўлиб келмоқда.

Шавкат МИРЗИЁЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти.

8 марта – Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан ФВВ Марказий аппаратида ташкил этилган байрам тадбирида Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев иштирок этди ва сафимиздаги опа-сингилларимизни ҳамда улар орқали юртимизнинг барча аёлларини, мунис онахонларимизни кутлуг байрами билан чин дилдан табриклиди.

Шунингдек, тизимда олиб борилаётган испоҳотлар хусусида сўз юритилди. Шарафли касб – ҳарбийликни танлаб, эркак ходимлар билан бир сафда фидокорона хизмат қилаётган хотин-қизларнинг фидойилиги, ўз бурчига бўлган садоқати, эришаетган ютуқлари, қўлга киритаётган натижалари, касбий маҳоратлари, тажрибалари алоҳида эътироф этилди. Юртимизда хотин-қизларнинг ҳуққ ва манфаатларини таъминлаш, давлат бошқаруви ва жамиятнинг барча жараёнларида уларнинг ролини оширишга қаратилган тизимли ишлар ҳақида таъкидлаб ўтилди.

Тадбир давомида Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, таниқли шоир Мирзо Карим мумтоз адабиётда аёл шаънини кўкларга кўтарувчи мисраларидан ўқиб, барчани хушнуд қилди. Қолаверса, “Ниҳол” мукофоти совриндори Мўминжон Садриддинов ҳамда ФВВ Академияси оркестри ва хонандалари ижросидаги концерт дастури барчага ўзгача шукух бағишилади.

Анвар ҚОБИЛОВ,
“Vaziyat” мухбери.



ТАЙИНЛАНДИ



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишили буйруги билан Тўраев Зафаржон Турсонпўлатович – Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Шаҳрисабз “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицеи директори лавозимига тайинланди.

Фавқулодда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров Наманган вилояти Учқурғон туманинадаги 46- маҳсус мактаб-интернатга ташриф буюриб, имконияти чекланган ўқувчи-ёшларга яратилган шароитлар билан яқиндан танишиди ва улар билан мулоқот ўтказди.

Ўқувчи-ёшларга Фавқулодда вазиятлар вазирлигида фаолият юритаётган эшитиш ва нутқида муаммоси бўлган шахсларни қўллаб-кувватлаш диспетчерлик хизмати ҳақида маълумот берилиб, хизматнинг сурдо-таржимонлари билан мобиль телефон орқали му-

ЁШЛАР БИЛАН МУЛОҚОТ



лоқот ўтказилди. Мулоқот давомида ўқувчиларнинг қизиқишлари ва келгусидаги режалари тўғрисида самимий сұхбат олиб борилди.

Шунингдек, ёшларга вазирликда ташкил этилган ушбу хизмат фаолиятидан фавқулодда вазиятлар содир бўлганда хабар

беришлари, маҳсус хизматлар, тиббиёт муассасалари ва бошқа жойларда сурдо-таржимон сифатида ҳамкорликда хизмат олиб бориш имкониятига эга эканликлари тушунтирилди.

ФВВ матбуот хизмати,

ХУҚУҚИЙ ТАРГИБОТ

Самарқанд ҳарбий прокуратураси томонидан назорат ҳудудидаги ҳарбий қисм ва муассасаларда ўрганишлар ва хуқуқий тарғибот-профилактика тадбирлари мунтазам ўтказиб келинмоқда.

Хусусан, ҳарбий қисмларнинг биринча таъмирлаш ва ободонлаштириш ишларига эътибор қаратилиб, соҳага доир қонунчилик талабларига риоя этиш юзасидан тавсиялар берилди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчи-

бий хизматни ўташ учун яратилган шароитлар, таъминот турларининг узлуксизлиги ва фаолиятга доир бошқа масалалар ўрганилиб, масъулларга тегишли кўрсатмалар берилди.

Тадбир якунида ҳарбий хизматчи-

лар билан мулоқот ўтказилиб, жамиятда хуқуқбузарликларга, жумладан, турли онлайн қимор ўйинларига ва киберфиригарликка қарши курашишда фаоллик кўрсатиш масалаларига эътибор қаратиладиган жиҳатлар юзасидан ҳаётий мисоллар асосида маълумотлар етказилди.

Фаррух ФАТУЛЛАЕВ,
Самарқанд ҳарбий прокурорининг ўринбосари, аддия майори.



ИЛЛАТГА ҚАРШИ

ФВВ Бошлангич тайёргарлик ва маляка ошириш маркази ҳарбий хизматчи ва хизматчилари билан Самарқанд вилояти ФВВ ходимлари ва туманинг тегишли мутасадди идора ходимлари иштирокида, "Коррупциясиз фаолият – тараққиёт гарови" шиори остида профилактик тадбир ўтказилди.

МУРОЖААТЛАР ТИНГЛАНДИ

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан Янгийўл туманинг ҳарбий қисмларнинг биринча ҳарбий хизматчилари, уларнинг оила аъзолари ва Қуролли Кучлар хизматчилари учун оммавий сайёр қабул ташкил этилди.



Унда ижтимоий-хуқуқий ҳимоя масалаларига эътибор қаратилиб, юздан зиёд мурожаатчиларнинг муаммолари мутахассислар иштирокида тингланди.

Тадбирда 37 та мурожаат қабул қилиниб, шундан 2 таси ижобий ҳал этилди, 11 тасига

хуқуқий тушунтириш берилди, 24 таси назоратга олинган ҳолда ваколатли идораларга кўриб чиқиш учун йўналтирилди.

Сардорхўжа АБРОРОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, аддия майори.

ЙИГИЛИШ

Наманган шаҳар ФВ бўлими ҳарбий хизматчи ва хизматчилари ўртасида коррупция, диний экстремизм ва интернет тармоқларидағи таваккалчилликка асосланган қимор ўйинларига қарши кураш ҳамда автомобиль бошқаришда йўл ҳарачати қоидаларига риоя этиш тўғрисида йиғилиш бўлиб ўтди.

Йиғилишга таклиф этилганлар коррупция тўғрисидаги қонуннинг мақсади унга қарши курашиш соҳасидаги муносабатларни тартибига солиш ва коррупцияга оид хуқуқбузарликлар хақида таъкидладилар.

Абдураҳмон ҲАМИДОВ,
Наманган вилояти ФВБ ШХБ бошлиғи, подполковник.
Искандар НУРАЛИЕВ,
Наманган шаҳар ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.

ОДИН ДЕНЬ ИЗ МОЕЙ ПРАКТИКИ

На основании соответствующих приказов МЧС Республики Узбекистан прохожу практику в Управлении по чрезвычайным ситуациям Республики Каракалпакстан. В ходе стажировки в целях закрепления теоретических знаний, полученных от преподавателей, я ознакомился с имеющимся в 10-м пожарно-спасательном отряде Кунградского районного отделения МЧС пожарно-спаса-

тельными машинами и оборудованием, а также с ведением служебной документации и еще ознакомился с работой в повседневной деятельности личного состава, получил необходимую мне информацию, высказывал свои предложения. Я верю, что полученные знания, навыки, помогут мне в моей будущей карьере военнослужащего.

Н.БЕКБЕРГЕНОВ,
курсант Академии МЧС РУ.

Наманган вилояти ФВБ ташаббуси билан ҳамкор ташкилотлар иштирокида ёшларни ҳарбий ватанпарварликка тайёrlаш, улар онгига ватанпарварлик, мардлик туйгуларини сингдириш мақсадида "Ватан – улуғ, бурч – муқаддас!" мавзусида тантанали тадбир ташкил этилди.

Тадбир сўнгигида ёшлар кўтқарув автомашиналари ва ундаги кўтқарув асбоб-анжомлари билан яқиндан танишдилар.

Ойбек ТОШТЕМИРОВ,
Наманган вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, полковник.

Тадбир давомида Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Коррупцияга қарши муросасиз муносабатда бўлиш муҳитини яратиш, давлат ва жамият бошқарувида коррупциявий омилларни кескин камайтириш ва бунда жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони ҳамда "Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорининг мазмунмояхияти, шунингдек, диний мавзудаги видео ва расмларга ҳеч қандай муносабат билдирилмасликлари, тарқатмасликлари кераклиги шахсий таркибга етказилди.

А.ТУРДИЕВ,
ФВВ БТ ва МОМ бўлим катта офицери, лейтенант.

Жиноятга жазо муқаррар

БОШИ БЕРК КЎЧА

Т.К. ҳеч жойда ишламаган. Ўқимаслик, хунарсизлик уни боши берк кўчага бошлаган. Яъни, у жиноят содир этган. Ўша куни Яшнобод тумани ИИО ФМБ ЖКБ ходимлари томонидан кучли таъсир қилувчи моддаларни сотиш билан шуғулланувчи шахсларни аниқлаш бўйича тезкор тадбир ўтказилган вақтда Олмос кўчасида кетаётган Т.К.нинг ҳаракати шубҳали кўринади. Шунинг учун унинг шахсини аниқлаш мақсадида тўхтатилган.

Маълум бўладики, Т.К. терговда шахсини аниқлаш имкони бўлмаган йигитдан 1.000.000 сўмга "гашиш" гиёхванд мoddасини сотиб олган. Кейин эса уни таниши бўлган иккя нафар йигитга 1.400.000 сўмга сотган. Ушбу модда холислар иштирокида далилий ашё сифатида расмийлаштириб олинган.

Тошкент шаҳар ИИБ ЭКБМнинг суд кимёвий экспертиза хулосасига кўра, фуқаро Т.К. га тегишли модда "гашиш" бўлиб, оғирлиги 3.06 граммга тенглиги аниқланган. Тадбир давомида корхоналардан биринча иш бошқарувчи бўлиб ишловчи Т.К. нинг дам олиш хонасидағи стол устида ўзининг истеъмоли учун олиб қолинган 0.25 грамм микдордаги "гашиш" гиёхванд модда ҳам далилий ашё сифатида ҳужжатлаштириб олинган.

– Ўша куни укам билан бирга ишловчи С.С. қўнғироқ қилиб, 4 грамм "гашиш" топиб беришимни сўради, - деди судда судланувчи К.Т. – Шундан сўнг мен Ж.га телефон қилдим. У эса 4 граммга яқинроқ микдорда топиб беришини мальум қилди. Биз учрашдик. Граммини 300.000 сўмга сотадиган бўлди.

Аммо кўп ўтмай ИИБ ходимлари томонидан ушландик. Ҳозирги кунда бўлган ишлардан пушаймондаман. Тушуниб етдим. Қамоқ билан боғлиқ бўлмаган жазо тайинлашингизни сўрайман.

Суд судланувчи Т.К.га 10 йил 1 ой, шериларидан бирига 10 йил, иккинчисига эса 7 йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинлади.

Оқибатини ўйламай жиноят содир этган 23-24 ёшли йигитлар бугунги кунда тайинланган жазони умумий тартибли колонияларда ўтамоқда.

Анвар ИКРОМОВ,
Жиноят ишлари бўйича Яшнобод туман судининг судьяси.

Ҳамид ШАМШИЕВ,
Тошкент шаҳар судининг судьяси.

БАҲОР САЙЛИ

Наманган ҳарбий прокуратураси, куч тузилмалари ва фахрийлар ҳамкорлигига Чортот туманинг чегараолди ва олис худудларидағи "Сарой", "Дехқонобод" ва "Арбагиш" маҳаллалари ёшлари иштирокида сайил ўтказилди.

Худуддаги 5-умумтаълим мактабида ўтган тадбирда, 42- ва 43-умумтаълим мактабларидан етти юздан зиёд ўқувчилар иштирок этилди.

Сўз олганлар ватанпарварлик туйгуси шаклланишида мактаб, маҳалла ва ҳарбий хизматнинг ўрни, буюк аждодларимиз, жадидлар ҳақида шунингдек, ёшларга яратилган кенг имкониятлар хусусида сўз юритдилар.

Абдумалик АБДУСАМАДОВ,
Наманган ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, аддия полковниги.

ТАДБИР

Наманган вилояти ФВБ ташаббуси билан ҳамкор ташкилотлар иштирокида ёшларни ҳарбий ватанпарварликка тайёrlаш, улар онгига ватанпарварлик, мардлик туйгуларини сингдириш мақсадида "Ватан – улуғ, бурч – муқаддас!" мавзусида тантанали тадбир ташкил этилди.

Тадбир сўнгигида ёшлар кўтқарув автомашиналари ва ундаги кўтқарув асбоб-анжомлари билан яқиндан танишдилар.

Ойбек ТОШТЕМИРОВ,
Наманган вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари, полковник.

Farg'ona shahar "Ilg'or" MFY hududi da qurilayotgan "Ekoshahar"da press-tur tashkil etildi.

PRESS-TUR



Ushbu tadbir davomida qad rostlayotgan turar-joy binolarining shaharsozlik norma qoidalariiga qay darajada amal qilinayotganiga ahamiyat qaratildi. Tutun hamda yong'in xabralagichlarning yangi, zamonaviy turlari haqida OAV xodimlariga, shuningdek, anjuman qatnashchilariga mutaxassislar tomonidan ma'lumotlar berildi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish yuzasidan aholi o'tasida muntazam ravishda targ'ibot tadbirlari amalga oshirilayotgani va ushbu tadbirlarga aholi qiziqishlarini oshirish maqsadida ko'plab fikrlar ilgari surildi. Yong'in texnik ekspertizasi xodimlari tomonidan ham hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelayotgan avtomobilarda yuz berayotgan yong'inlarga sababchi bo'layotgan muhum omillarning oldini olish yuzasidan ham bir qator samarali takliflar berildi.

Ahliddin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot
xizmat boshlig'i,
kapitan.

HARBIY QISMDA

Pop tumani FV bo'limiga biriktirilgan 2-sektor hududidagi yoshlarni harbiy qism faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida sayohat tashkil etildi.

Mahalla yoshlari harbiy qismda askarlarning yashash sharoitlari, harbiy tayyoragarlik borasida o'quv mashg'ulotlari jarayonlari bilan tanishdilar. Harbiylar esa yoshlarga ushbu sharafli kasb mas'uliyati, mashaqqati hamda Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligi haqida gapirdilar.

O'tkirjon MAMASODIQOV,
Pop tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,
leytenant.

Milliy gvardiya Namangan viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda viloyat Qo'riqlash va Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari hamkorligida Milliy gvardiya ga biriktirilgan mahalla yoshlari hamda maktab o'quvchilari ishtirokida "Ochiq eshilalar kuni" o'tkazildi.

SANAGA BAG'ISHLANDI

Namangan viloyati FVB rahbariyati tomonidan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan sohada xizmat olib borayotgan barcha ayol-qizlar uchun bayram dasturi tashkil etildi.

Dastlab, boshqarma boshlig'i tomonidan, Favqulodda vaziyatlar vaziri hamda viloyat hokimining bayram tabrigi o'qib eshittirildi.

Shuningdek, boshqarma boshlig'i polkovnik Bunyod Egannazarov ham o'zining samimiyl tilaklarini yo'lladi.

Shundan so'ng, boshqarma boshlig'ining buyrug'iiga asosan boshqarma tizimida o'z xizmat vazifalariga sidqidildan yon-

dashgan xizmatchi va harbiy xizmatchi ayol-qizlarimizga bir xil miqdorda pul mukofoti hamda bayram sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Dildora ASHURMATOVA,
Namangan viloyati
FVB xodimi.

Shoira DAVLYATOVA,
Uchi tumani FV bo'limi
inspektor, kichik serjant.



Taxiatosh tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik R.Kanayev boshchiligidagi tumanning 2-sektoridagi 16- hamda 18-umumta'lim maktablari o'quvchilari bilan Uch avlod uchrashuvi hamda yong'in o'chirish va qutqaruv asbob-uskunalarining ko'rgazmasi o'tkazildi.

UCH AVLOD UCHRASHUVI

Mazkur tadbilda FVB Akademiyasi bo'lim katta ofitseri mayor J.Xidirov va Akademiyaning 5-kurs kursantlari, nafaqadagi podpolkovnik B.Jiyanbayev, nafaqadagi mayor N.Kulbarakov, Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB maxsus vazifalarni bajarish bo'yicha qutqaruv ot-ryadi ekipaji hamda Taxiatosh tumani FV bo'limi 16-YQQning yong'in o'chirish ekipajlari jalb qilindi.

Uchrashuvda yoshlarga harbiy vatanparvarlik tarbiyasi umumiyl tarbiyaning tarkibiy qismi ekanligi, bunda yoshlarning vatanga muhabbatni va sadoqatini mustahkamlash, ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda nafaqat qutqaruvchilik kasbiga, balki Qurolli Kuchlarimizga nisbatan ijobji fikrlarini yanada oshirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarni jismonan sog'gom, ma'naviy etuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etuvchi tushunchalar berildi.

S.QURBONBOYEV,
Taxiatosh tumani FV bo'limi 16-YQQ boshlig'i, mayor.

YOSHLAR – YURT TAYANCHI



Tadbir Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining jangovar chiqishlari, harbiy anjom-aslahalar, harbiy texnikalar ko'rgazmasi, chavandozlar maktabi mutaxassislari tomonidan tashkil etilgan ot minish, ot ustida kamondan otish kabi mahorat darslari bilan davom etdi.

A.ABDULLAYEV,
Davlatobod tumani FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.

I.MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati
yetakchi mutaxassisi.

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tinglovchilari o'rtaida "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

KO'RIK-TANLOV



Ko'rik-tanlovini markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov kirish so'zi bilan ochib, mamlakatimizda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor berilayotganligi, yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar, bilimli, intiluvchan va tashabbuskor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilayotganligi, bu borada FVV xodimlari ham o'zlarining munosib hissasini qo'shib kelayotganliklarini alohida ta'kidladi.

Tanlovida tinglovchilar uchta shart bo'yicha bellashishdi. Bahsler qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tib, hakamlar hayati har bir tinglovching ishtirokini munosib baholab bordi.

Musobaqa yakuniga ko'ra g'olib bo'lgan tinglovchilarga va faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alar va faxriy yorliqlar topshirildi.

B.ISHNAZAROV,
FVV BTvaMOM Axborot-resurs markazi
boshlig'i, kichik serjant.

I.SULTONOV,
Axborot-resurs markazi elektron
kutubxona mutaxassis,
oddiy askar.

UCHRASHUV

Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 61-umumta'lim maktabi bitiruvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni Vatanga sadoqatli, harbiy vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida shaklanishi maqsadida tadbir o'tkazildi.

I.BEKJONOV,
Bosh vazir kotibi Hukumat
uyidan foydalanish boshqarmasida va
avtoxo'jaligi binolarida
YXTTEB inspektori, kapitan.

TEATR VA SAYOHAT

Qashqadaryo viloyati FVB tashabbusi bilan Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi viloyat drama teatrida Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asari asosida sahnalaشتirilgan spektakl soha xodimlari, ularning oila a'zolari, shuningdek, Qarshi tumani 2-sektor yoshlariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.



Shu kunning o'zida yoshlar uchun Qarshi shahridagi "Vatanparvarlar bog'i"da sayohat uyuşdırıldı. Yoshlarga milliy armiyamizning o'tmishidan so'zlovchi tarixiy qo'lyozmalar va harbiy sohaga oid eksponatlar haqidagi ko'plab qiziqarli ma'lumotlar yetkazildi.

Aziz QUDRATOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bosh
inspektori, katta leytenant.

NAFOSAT GULSHANI

8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan FVV Akademiyasi ayollarini o'rtasida sportning badminton, 100 metr masofaga yugurish, sport granatasini uloqtirish hamda shashka o'yini turlari bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqa natijalariga ko'ra, faxli o'rnlarni egallagan g'olib va sovrindorlar Favqulodda vaziyatlar vaziri va Akademiya faxriylari, harbiy xizmatchilari, ayol xodimlar va kursantlar ishtirok etgan Xalqaro xotin-qizlar kuniiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirda diplom va medallar bilan taqdirlandilar.

Tadbirda so'z olgan Akademiya boshlig'i general-major Ravshan Haydarov yurtimizdagi barcha munis ayollarimizni, shu jumladan, akademiyada erkaklar bilan bir safda turib yurt osoyishtaligi, tinchligi yo'lida, xizmat qilayotgan hamda porloq ke-

lajagimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni kamol toptirish, tarbiyalash kabi o'ta mas'uliyatlari vazifani ado etib kelayotgan barcha xotin-qizlarni tabriklandi. Shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vaziri general-major A.Qo'idoshev hamda Akademiya boshlig'i general-major Ravshan Haydarovning bayram munosabati bilan soha malikalarini mukofotlash to'g'risidagi tegishli buyruqlari o'qib eshittirildi va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni, tashakkurnoma va pul mukofotlari tantanali topshirildi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi
katta o'qituvchisi.



MARKAZDA VIKTORINA

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bizning asosiy vazifamiz" mavzusida viktorina o'tkazildi.

Uning birinchi shartida "Yong'in o'chirish taktikasi" va "Yong'in-qutqaruvi texnikasi asoslari" fanlaridan tezkor savolvajoblar amalga oshirildi. Viktorina yakunida g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

J.XOLMIRODOV,
FVV BT va MOM siki katta
o'qituvchisi, mayor.

V.AMONULLOYEV,
siki o'qituvchisi, katta
leytenant.

FM TADBIRLARI

Jizzax viloyati Paxtakor tumanida "Boshqaruvi organlari, favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy va funksional quiytizimlarining favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha harakati" mavzusida qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

FVDT hududiy quiyi tizimlarining boshqaruvi organlari, kuch va vositalarining tayyorgarlik darajasini muvoqiflashtirish, harakatlarini takomillashtirish maqsida tashkil etilgan mazkur o'quv mashqida, 6-umumta'lismaktabida hamda 2-maktabgacha ta'lif tashkilotida "Favqulodda vaziyatlar bolalar nigohida" mavzusida fuqaro muhofazasi qaratilgan chora-tadbirlar asosida aholi punktlarida kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha soha yo'nalishida mavzuga oid profilaktik tushuntirish ishlari amalga oshirildi. Ish bilan band bo'lmagan aholiga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilim ko'nikmalarini takomillashtirilib, mavzuga oid eslatma materiallar tarqatildi.

B.QOBILOV,
Jizzax viloyati FVB
HFXO'M o'qituvchisi.

Olmaliq shahar FV bo'limida "Yosh qutqaruvi" ko'rik-tanlovining shahar bosqichi o'tkazildi.

MUROSASIZ BAHSLAR



Musobaqada 19-umumta'lum maktabining "Shijoat", 16-umumta'lum maktabining "Legion", 7-umumta'lum maktabining "Xaloskorlar", 3-umumta'lum maktabining "Alpomishlar" va 11-umumta'lum maktabining "Najotkorlar" jamoalari o'zaro bellashdilar.

Murosasiz kechgan bahslarda 3-o'rinni "Najotkorlar" va "Legion" jamoalari, 2-o'rinni "Xaloskorlar" jamoasi, musobaqaning mutlaq g'olibligini "Shijoat" jamoasi qo'lga kiritdi. G'oliblarning tuman FV bo'limining faxriy yorilqlari hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

A.YO'LDSHYEV,
Olmaliq shahar FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

X.ELBOYEV,
bo'lim bo'linma boshlig'i, kapitan.



"LUOK" MChJ "Hisor" neft-gaz qazib
chiqarish sexida maxsus-taktik mashq
o'tkazildi.

TAYYORGARLIK

Obyektda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen ko'rinishdagi avariylar va yong'inlarni bartaraf etish vaqtlarida obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari va boshqa tezkor xizmatlar harakatlarini mukammallashtirish, favqulodda vaziyatlarda ularning tayyorgarligi qayda rajada ekanligini tekshirish, tabiiy va texnogen ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshqaruvi xizmatlarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maxsus-taktik mashqning asosiy maqsadi qilib olindi.

S.HAMIDOV,
"LUOK" MChJ Qashqadaryo viloyatidagi
OYXTTEB P va NB inspektori, kapitan.

KO'RGAZMALI UCHRASHUV

Yangiariq tumani "Boyot" mahallasida 283 nafar yoshlar bilan tuman FV bo'limi, Urganch harbiy prokuraturasi, tuman muddafa bo'limi, Xorazm viloyati Yangiariq tumani Milliy gvardiya xodimlari bilan yoshlarni "Vatanparvarlik va milliy qadriyat" mavzusida ko'r gazmali uchrashuv o'tkazildi.

D.JUMANIYOZOVA,
Yangiariq tumani FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

"YOSH QUTQARUVCHI" MUSOBAQASI

To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi hamda xalq ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi "Yosh qutqaruvi" ko'ngillilar klubini jamoalari o'rtasida "Yosh qutqaruvi" musobaqasining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda tumandagi maktablardan 8 ta ja-moa ishtirok etdi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, 42-umumta'lum maktabining "Qalqon" jamoasi 3-o'rinni, 1-umumta'lum maktabining "Yosh qutqaruvi" jamoasi 2-o'rinni, 30-umumta'lum maktabining "Burgutlar" jamoasi esa 1-o'rinni qo'lga kiritdilar. G'olib jamoa viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

Anvarjon ARIPOV,
To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, mayor.



MINI FUTBOL

Pop tumani FV bo'limiga biriktirilgan 2-sektor hududidagi yoshlar o'rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha musobaqaga start berildi.

Tadbirning ochilish marosimida so'z olgan tuman FV bo'limi boshlig'i barcha jamoalarga omad tilidi. So'ng jamoalar o'zaro bellashuvga kirishdilar.

O'tkirjon MAMASODIQOV,
Pop tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, leytenant.

MUNOSIBLAR TAQDIRLANDI

Chinoz tumani hokimligida Favqulodda vaziyatlar vazirligining 28-yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazildi.



Tadbir davomida tuman FV bo'limida uzoq yillar davomida xizmat qilayotgan, o'zining mehnat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishib, tuman ravnayi uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgan xodimlarga hokimlik tomonidan sovg'alar va tashakkurnomalar berilib, ularni aholining tinchligi va farovonligi yo'ilida amalga oshirilayotgan ishlari e'tirof etildi.

Alisher MAVLONOV,
Chinoz tumani hokimligi
axborot xizmati rahbari.

Маърифат соати



ЎЗБЕК МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТИНИНГ

ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Барчамизга маълумки, менталитет авлоддан-авлодга ўтиб келаётган тарбиянинг натижаси сифатида жамиятнинг ҳар бир аъзосининг ҳисс-туйғулари, онги ва иродасида намоён бўлади. Миллий маданиятнинг бир қисмини ифода этган ҳолда инсонларнинг ички кечинмалари, онгида шаклланади.

Менталитет (лотинча менс – акл, идрок) – жамият, миллат, жамоа ёки алоҳида шахснинг тарихий таркиб топган тафаккур даражаси, маънавий салоҳияти, уларнинг ҳаёт қонунларини таҳлил этиш кучи, муайян, ижтимоий шароитларда шаклланган ақлий қобилияти, руҳий қувватини ифода этадиган тушунча ҳисобланади. Жамият, миллат ёки шахснинг менталитети уларнинг ўзига хос миллий анъаналари, расм-руссумлари, урф-одатларини ҳам қамраб олади. Ҳар бир миллатнинг менталитети турфа хил ва ўзига хосдир. Бу ҳол ўз этник мансублигини идрок этишга ёрдам беради, ижтимоий ҳамда ахлоқий тажриба миллий шаклларининг авлоддан-авлодга ўтишида восита вазифасини ўтайди. Муайян гурух ёки миллат, ҳалқ менталитети унинг маданий аҳволига ҳам боғлиқ ҳисобланади. Менталитет миллат руҳини тушуниш, англаш билан бирга, унинг ҳаётий фаолиятига хос хусусиятларни билишнинг ҳам калити ҳисобланади.

Менталитет маълум даражада муайян мамлакат, сиёсий ҳаёт, этник ва маданий анъаналар, ижтимоий алоқаларга боғлиқлар. Дунёда ҳар бир миллат ўзига хос феъл-атворга эгадир. Шунинг учун ҳам турли минтақада яшаётган ҳалқлар турлича яшаш тарзига, бир-бирига ўхшамаган урф-одатларга эга бўлишади. Менталитет нисбатан муқим, барқарор ҳодиса бўлсада, оммавий онгда иқти-содиёт ва руҳиятдаги мулоқот, силжишлар ва ҳокимият шаклига боғлиқ ҳолда менталитетда ўзгаришлар юз бериши мумкин. Менталитет илдизлари қанчалик чукур экани, айниқса, фольклор маданиятида намоён бўлаади. Менталитет ижтимоий тарихнинг ажралмас жиҳати сифатида кишиларнинг тушунча ва тасаввурлари орқали ифодаланади. Бу тушунча ва тасаввурлар эса тил, ижтимоий муносабат, маданият орқали кишилар онгига сингдирилади.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, ўзбек ҳалқига хос менталитет узоқ тарихий даврдаги ижтимоий-иқтисодий,

сиёсий жараёнлар, табиий географик ўрнашув, ўзаро этномаданий алоқалар асосида қарор топган. Асрлар давомида ўзбек ҳалқи мухим савдо-сотиқ, илм-фан, меъморчилик, хунармандчилик марказлари, ҳалқлар ва мамлакатларни бир-бири билан боғлаб турган йўллар чорраҳасида яшагани сабабли, унинг менталитети анча тараққий этиб борган. Қолаверса, ақлий-интеллектуал имкониятлар ҳамда руҳий-психологик қарашларни қамраб олган. Ўзбеклар тарих саҳнасидаги миллат сифатида ўз сафларига кўплаб туркӣ уруғларни бирлаштириш йўли билан пайдо бўлганлиги боис, бағри кенг ҳамда миллатчилик кайфиятидан йироқ ҳалқ сифатида шаклланган. Шунинг учун ҳам бугунги замонавий Янги Ўзбекистонда кўплаб миллат ва элатларнинг вакиллари тинч ва осойишта ҳаёт кечирмоқдалар.

Ўзбек ҳалқининг юксак миллий қадр-қиммати, ор-номуси ва шон-шарафи унинг ўта меҳрибонлиги ва соғи виждонига асосланганадир. Миллий ифтихор ҳам ғурур туйғуси сингари миллий онг мазмунининг мухим омилидир. Ўзбеклар диёнат, ор-номус, шарм-ҳаёни, меҳмондорчиликни ижтимоий ҳаётнинг ҳамма жабҳаларида мухим фазилат, деб қабул қилишган. Шундай хислатлар бальзан, бу фақат “ўзбекона фазилат” деб юритилади. Миллатимизда оила менталитетнинг синтезли ташувчиси сифатида эътироф этилади. Оила, аввало, қадимий анъана ва қадриятларнинг сақловчисидир. Чунки айнан унда умуминсоний қадриятларга бошланғич муносабат шаклланади. Оилавий қадриятлар ва урф-одатлар орқали миллий анъаналар вужудга келади.

Ўзбек ҳалқининг этник жиҳатидан кўп тармоқли ва сертомир эканлиги унинг менталитетида барча урuf ва ижтимоий қатламлар учун умумий жиҳатлар, жамоа манфаатларини ҳимоя қилувчи фазилатнинг, айниқса, ривож топишни тақозо этиб келган. Миллий менталитетимизга хос жиҳатлардан яна бири жамият ҳаёти,

инсонлар турмуш тарзини кўпроқ анъана урф-одатлар орқали бошқарилишидир. Ўзбек ҳалқи оила куриш анъаналарига риоя қилишда, қиз узатиш ёки куёв танлашда ҳам бўлажак кудалари ҳақида мукаммал маълумотга эга бўлиш, уларнинг ижтимоий келиб чиқишини, жамоада тутган ўрнини ҳисобга олишга ҳаракат қилишади. Фарзандларни яхшига кўшиш, бу борада хато қилиб кўймаслиқда жамоа, жамият раъий, кўпчилликнинг кенгашли фикри мухим роль ўйнайди. Шу боисдан ҳам жамоатчилик фикрининг шахс турмуш тарзи, тақдирини белгилашдаги устуворлик мавқеи беқиёсdir.

Дарвоқе, узоқ давом этган собиқ совет давлатининг мафкуравий тазииклари оқибатида кўплаб диний ва миллий қадриятларимиз эътиборсиз қолди, узоқ тарихга эга бўлган мұқаддас анъана ва маросимларимиз “эскилек сарқити” сифатида камситилди, миллий удумларимизнинг тарихий асосларига холисона баҳо берилмади. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ўтмишдан мерос бўлиб ўтган ана шундай салбий ҳолатларга янгича нигоҳ билан қараш, аждодларимиз томонидан кўп асрлар мобайнида яратилган фоят улкан, бебаҳо маънавий, маданий меросимизни, ўтмиш тарихимизни, қолаверса, умуммиллий маънавий испоҳотларни амалга ошириш асосий вазифалардан бири сифатида эътироф этилди ва улар давлат сиёсати даражасидаги фоят мухим вазифа қилиб белгиланди. Бугунги кунда ҳаётий заруратнинг ўзи ҳалқимиз феъл-атвори, менталитетини янгилашга жиддий эътибор қаратишга унданомақда. Умуман олганда, миллий менталитет билан боғлиқ масалалар алоҳида дикъатга сазовор жараёндир. Чунки бир томондан, у жаҳонда, мамлакатда содир бўлаётган ижтимоий жараёнлар таъсирида ўзгариб борса, иккинчи томондан, ушбу ижтимоий жараёнларнинг ўзига акс таъсир кўрсатади.

Ёшлар маданият намуналарини фаол ўзлаштирувчилариидир. Жамиятда тарбия топаётган келгуси авлод ўзидан олдинги авлоднинг эришган ютуқлари, анъана ва маросимлари,

урф-одатлари, бир сўз билан айтганда, маданият намуналарини ўзлаштирибина қолмай, балки уни ривожлантиради ва кейинги авлодга етказади. Хусусан, ҳалқнинг асрлар давомида ўзига хос тарихий йўлни босиб ўтиш асосида шаклланган миллий менталитет хусусиятларини ёш авлод томонидан ўзлаштирилиш жараёни мураккаб жараёндир. Ёшларнинг ҳаётда фаолият олиб боришларида қайси менталитет хусусиятларини ўзлаштирганликлари асосий ўринга эгадир. Шу нуқтаи назардан менталитетни ўрганиш ва илмий жиҳатдан тадқиқ этиш ўта долзарб ҳисобланади. Менталитет ўзини маълум миллат, ҳалқ миллий менталитетида ўз аксини топади. Миллий менталитетнинг ўзаги, бу – ижтимоий характердердир, яъни ўз хусусиятларини ижтимоий характер орқали намоён этади. Ижтимоий характер ишлаб чиқариш усулининг талаб ва эҳтиёjlари асосида шаклланар экан, демак, маълум бир жамиятга хос бўлган ишлаб чиқариш усули ўзгармасдан туриб ижтимоий характерда ҳам ўзгаришлар бўлишини кутиш мумкин эмас. Миллий менталитетнинг асосий таркибий қисми бўлган ижтимоий характер мазкур жамиятга хос бўлган ишлаб чиқариш усулининг талаб ва эҳтиёjlари асосида шаклланади. Ижтимоий характер миллатнинг ўзига хос бошқа хусусиятлари, миллий ўзликни англаш даражаси, миллий фоя, диний эътиқод, фалсафа, санъат, адабиёт, қадриятлар тизимларида ўз ифодасини топади, уларга ўз таъсирини ўtkазади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, бутун жаҳон бўйича улкан глобализацион жараёнлар кечаётган бир вақтда ўзбек миллий менталитетини тадқиқ қилиш, унинг нечоғлик умуминсоний қадриятларга мослигини кузатиш имконини беради. Шунингдек, ҳалқимизнинг қадимий анъаналари, азалий урф-одат ҳамда маросимларига эга бўлиши билан биргаликда, ўзига хос ва ўзига мос миллий менталитетга эга ҳалқ эканлигидан далолат беради.

“Vaziyat” мухбири
Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлadi.

TUSHUNTIRISH ISHLARI

Xorazm viloyati FVB tomonidan boshqarmaning barcha tuman-shahar bo'limlari bo'ylab korruption holatlarga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida harbiy xizmatchilar va xizmatchilar o'rta-sida targ'ibot tadbirilari olib borilmoqda.

Mazkur targ'ibotlar davomida xodimlar zimmasidagi mas'uliyati, o'zlarining huquq-majburiyatlar va vazifalari yuzasidan huquq bilimlar berilib, o'z vazifalariga halol va vijdonan yondashishlari lozimligi yuzasidan tu-shuntirishlar berilmoqda.

Kamoliddin RAHMONQULOV,
Xorazm viloyati FVB shaxsiy
xavfsizlik bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

Avtomobil dvigatelidan chiqqan gazlarning nafas yo'liga tushishiga yo'l qo'y mang. Ishlangan gazlar tarkibida rangsiz va hidsiz is gazi mavjud. Is gazi esa salomatlik uchun juda xavfli. Inson undan nafas olganda hushining yo'qolishiga va o'limga olib kelishi mumkin.

AVTOMOBILDAN CHIQADIGAN GAZLAR

Agar ishlangan gazlar transport vositali-chiga kirayotganini sezsangiz, darhol transport vositasini rasmiy dellirda tekshirtilish va ta'mirlatish talab etiladi. Buning uchun ma'lum bir masofani bosib o'tishga to'g'ri kelsa, avtomobilni oynalari ochiq holatda haydang. Avtomobilga ishlangan gazlar kirishining oldini olish uchun har safar mojni almashtirish uchun avtomobilni yuqoriga ko'targanda, gazlar chiqariladigan tizim chiqaradigan tovushda o'zgarish sezilganda, avtomobilning tag yoki orqa qismi shikastlanganda yoki korroziyaga uchraganda ishlangan gazlar chiqariladigan tizim va korpus tekshiruvdan o'tkazilishi kerak. Avtomobil berk joylarda ishlab turgan dvigatela uzoq vaqt turib qolishiga to'g'ri kelsa, tash-qaridan havo kirishini ta'minlash uchun havo so'rgich dastagini toza havo oqimi rejimiga o'zgartiring va ventilyator boshqaruva dastagini eng yuqori tezlikka o'tkazing.

Jasur UMIROV,
NKMK bo'lim inspektori,
katta serjant.

MUROJAAT YUZASIDAN

O'tgan yilning 12 oyi mobaynida Qashqadaryo viloyati FVBga tabiiy hodisalar bilan bog'liq ko'plab murojaatlar kelib tushgan.

Xususan, Yakkabog' tumani "Qo'shchinar" MFYda yashovchi ayrim fuqarolarning yashash uyi tomorqasini yog'ingarchiliklar sabab yuzaga kelayotgan sel suvlarini yuvib ketish xavfi borligi haqida murojaat yo'llangan. Viloyat FVB mas'ullari barcha zarur kuch-vositalarni jalg etgan holda, u yerda daryo qirg'oqlarini mustahkamlash ishlarini olib borishdi. Shuningdek, sel kelishi, kuchli shamol bo'lishi, harsang toshlar qulashi, yer va qor ko'chkisi kuzatiladigan Shahrisabzning Ko'l qishlog'i aholisini tuman markazi bilan bog'lovchi avtomobil yo'lining qariyb 10 kilometr qismi qalin qordan tozalandi. Tik qiyaliklarda yer yoki qor ko'chish xavfi bo'lgan hududlarda fuqarolarning harakatini cheklash maqsadida qo'shimcha belgilari o'rnatish ishlari amalga oshirildi.

O.RAHMONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim
boshlig'i, podpolkovnik.

SH.QOBILOV,
Yakkabog' tumani FVB bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.



TO'SIQLAR OLIB TASHLANDI

Olmazor tumani Prokuraturasi, tuman FV bo'limi, tuman IIOFMB, tuman Kadastr agentligi, tuman Yo'l harakati xavfsizligi bilan hamkorlikda tumandagi ko'p qavatlari uylar, yakka tartibdagagi xonadonlar yo'llarini, tor ko'chalarni va o'tish joylaridagi to'sib va yopib qo'yilgan sun'iy tosiqlar olib tashlanib, shoshilinch xizmat avtouolvlariga harakatlanish imkoniyati yaratib berildi.

J.MIRZOYEV,
Olmazor tumani FV bo'limi P va NB
inspektori, leytenant.

Toshkent tumani "Sabzavod" MFYdagi 25-umumta'lim maktabida targ'ibot tadbirilari o'tkazildi.

Unda tuman FV bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlarning muammolarini tizimli o'rganish, ular bilan ochiq muloqotlar o'tkazib borish orqali vatanparvarlik, jamiyat hayotiga daxldorlik va yurtimizdag'i qonunlarga hurmat bilan qarash hamda qalbida ezgulik tuyg'ularini shakllantirish borasida har bir yosh

bilan yakka tartibda suhbatlashilib, hayotiy ko'nkmalarini mustahkamlash hamda ularning qiziqishlari va intilishlarini kasbga yo'naltirish to'g'risida fikr almashinildi.

MAKTABDA MULOQOT

Shuningdek, sodir bo'layotgan yong'inlarning aksariyati fuqarolarning yashash xonadonlarida sodir bo'layotganligi, fuqarolarning yong'in



etish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazildi.

A.ZOKIROV,
O'rtaçirchiq tumani FV bo'limi katta inspektori, leytenant.
L.TOSHBOLTAYEV,
bo'lim inspektori, oddiy askar.

Qashqadaryo viloyati FVB xodimlari va qator tashkilotlar hamkorligida Kasbi tumanida o'tkazilgan tadbirilarda aholiga yong'in, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, is gazi va ovqatdan zaharlanish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalardan foydalanish hamda to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha tushunchalar berilib, eslatma va bukletlar tarqatildi.

HAMKORLIKDA

Qolaversa, tumanda yangi barpo etilayotgan qurilish obyektlarida quruvchi va mutaxassislar o'tasida "Favqulodda vaziyat-larning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash – eng

ustuvor vazifa" mavzusida profilaktik targ'ibot tadbiri ham tashkil etildi.

S.OLTIYEV,
Kasbi tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, leytenant.

Surxondaryo viloyati FVB obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan "Termiz xalqaro aeroport" MCHJ ishchi-xodimlari ishtirokida yong'in xavfsizligi bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu tadbir davomida obyektni uzluksiz elektr toki bilan ta'minlovchi 6 ta TP, favqulodda holatlarda foydalanish uchun 11 dona elektr generatorlarning sozligi va ularning ishchi

holatidaligi to'liq o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish ishlari bajarildi. Shuningdek, aeroport hududidagi o'rnatilgan yer osti suv olgichlari o'rganili va dalolatnomalar tuzildi. Obyektdagi mavjud barcha yong'inga qarshi qalqonlarning o'z vaqtida ta'minlash ishlarini qay darajada tashkillashtirilganligi ko'rib

YOSHLAR BILAN SUHBAT

Toshkent shahar Sergeli tumani "Qutbaraka" MFY yoshlar yetakchisi, FVB xodimlari va IIB profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda mahalladagi yoshlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilmoqda. Ularning muammolar o'rganilib chiqilmoqda. Ishlab

chiqilgan yo'l xaritalariga assosan og'ir toifaga kiruvchi va nogironligi bo'lgan yoshlar bilan suhbatlar tashkil etildi.

O.OTAMURODOV,
Toshkent shahar
FVB MTRK OYXTTEB
inspektori, kapitan.

TARG'IBOT ISHLARI

Toshkent viloyati FVB "Ko'ksoroy" qarorgohi OYXTTEB yong'in nazorati va profilaktika inspektorlari tomonidan Qibray tumani "Yuqori yuz" MFYda fuqaro va xodimlar ishtirokida "Favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlarning oldini olish" mavzusida targ'ibot ishlari tashkil etildi.

Ishchi-xizmatchi va fuqarolar bilan nosoz yoki qo'l bola usulda yasalgan gaz va elektr isitish moslamalaridan foydalanish oqibatida yong'inlar sodir bo'lishi, birlamchi yong'in o'chi-

rish vositalaridan foydalanish tartibi bo'yicha tushunchalar berib o'tildi.

Sh.ABDUMANNOPOV,
Qibray tumani FV bo'limi
inspektori, leytenant.

xavfsizligi qoidalarini bilmasliklari yoki bila turib beparvolik bilan qoidalarni qo'pol ravishda buzhishlari oqibatida kelib chiqayotganligi va fuqarolarning is gazidan zaharlanishiga sabab bo'layotganligi, arzimagan sovuqqonlik, e'tiborsizlik katta fajiani keltirib chiqarayotganligi ta'kidlandi.

X.ORTIQBOYEV,
Toshkent tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, kapitan.

Bino, inshoot va xonalardagi yong'inga qarshi tizimlar va qurilmalar, ya'ni tutunga qarshi himoya, avtomatik yong'in vositalari, yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari, eshik, parda va klapanlar, tutun chiqarish lyuklari, yong'inga qarshi devor va shiftlardagi boshqa himoya moslamalari doimo soz va ishchi holatda bo'lishi kerak.

ENG MUHIM TALAB

Eshiklarning o'zi yopiladigan moslamalari doimo soz holatda bo'lishi zarur, tutunga qarshi va yong'inga chidamli eshiklarning oson ochilishiga yoki yopilishiga to'sqinlik qiluvchi biron-bir moslama o'rnatish mumkin emas.

Qurilish konstruksiyalari, yonuvchi, pardozlash va issiqqlikni tutuvchi materiallarning uskunalarini metalldan ishlangan ustunlarning olovdan himoyalash qoplamlari (olvadan himoyalash xususiyatlarini yo'qotish va pasaytirishni hisobga olgan holda suvoqlar, maxsus bo'yoqlar, lakov shu kabilalar) buzilish holatlari darhol bartaraf etilishi kerak.

Yog'och konstruksiyalari, matolar me'yor talablarasi asosida ishlov berilgan (shimdirilgan) bo'lib, olovdan himoyalash tarkibining ta'sir muddati tugagan yoki himoyalash xususiyatini yo'qotgan bo'lsa, ularga takroran ishlov berilishi (shimdirilishi) lozim.

R.DAVLYAEV,
Prezident Administratsiyasi binosida
YXTTE 1-bo'linma inspektori, mayor.

chiqildi. PQAQT xizmatidagi navbatchi smena tarkibi bilan hamkorlikda favqulodda holatlarning oldini olishda hamda yong'in o'chirish avtomobillaridan tezkor hamda samarali foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi.

J.QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati FVB
OYXTTE bo'limi inspektori
(xalqaro aeroport bo'yicha),
kapitan.

TO'G'Rİ FOYDALANING!

So'nggi yillarda respublikamiz hududida tabiiy gaz va suyultirilgan yoki siqilgan gaz bilan to'dirilgan ballonlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalari talablarini buzilishi nati-jasida turli xil ko'ngilsiz hodisalar qayd etilib, ularda insonlarning tan jarohati olib halok bo'lismi holatlari kuzatilmadga. Fuqarolarimiz osoyishtaligi va tinchligi yo'lida nosoz va yaroqsiz bo'lgan maishiy gaz ballonlaridan foydalanishga chek qo'yish, bu bilan hamyurtlarimiz hayoti xavfsizligini ta'minlash barcha fuqarolarning burchlaridan biridir.

N.SIDDIQOV,
Andijon tumani FV bo'limi inspektori,
kapitan.

Yashnobod tumani FV bo'limi, Toshkent shahar IIBB, Milliy Gvardiya va qator FVDT tuzilmalari vakillari bilan birgalikda tumandagi barcha Jome masjidlarini taroveh namozlari boshlanishi oldidan ushbu maskanlarning favqulodda va yong'in xavfsizligi, fuqarolarning xavfsizligiga oid yo'naliishlarida o'rganish ishlari olib borildi.

O'RGANISHLAR



O'rganishlar davomida asosiy e'tibor maskanning yerto'la va yuqori qavatlari, evakuatsiya yo'llarining holati va birlamchi yong'in o'chirish vositalari va ularning holati to'liqligiga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga ishchi-xodimlarga yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'rnomalar berildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi
inspektori, katta leytenant.

MAVSUMGA TAYYORGALIK

Avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovon qismida 18 ta sel-suv toshqini bilan bog'liq xavfli uchastkalar mavjud bo'lib, shundan 7 tasi Ohangaron, 11 tasi esa Pop tumaniga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda sel suvlarini betalafot o'tkazish maqsadida 180 dan ortiq suv o'tkazish inshootlari mavjud.

Temir yo'lning "Angren" va "Temiryo'lobod" stansiyalari oralig'idagi 26 ta sel, suv toshqinlari bilan bog'liq xavfli uchastkalarda 240 dan ortiq sun'iy suv o'tkazish inshootlari o'rnatilgan.

M.JO'RAYEV,
"Qamchiq" MQYQB FVPB katta
texnigi, kichik serjant.

PROFILAKTIK UCHRASHUV

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish bo'yicha uchrashuv tashkil etildi.

Tadbir davomida is gazidan zaharlanishning, gaz-havo aralashmali chaqnash kabi favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tushuntirishlar berildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.

Uchquduq shahrida Yong'in qutqaruv amaliy sporti yo'nalishi bo'yicha ShKB OYXTTE bo'limi birinchiligi musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda bo'lim tasarrufidagi 6-, 7-, 8-, 9-YQQ terma jamoalari ishtirot etishdi.



G'OLIBLAR TAQDIRLANDI

Musobaqa shartlariga ko'ra, ishg'ol qilish narvonida o'quv minorasining 4-qavatiga ko'tarilish, 100 metrga to'siqlar osha yugurish va yong'in o'chirish estafetasi hamda yong'in-qutqaruv avtomobili orqali jangovar yoyilish turlari bo'yicha g'oliblik uchun kurash olib borildi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqaning umumiya-

tijalariga ko'ra, faxrlı 1-o'rinni 6-YQQ terma jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa, 2-o'rin 8-YQQ terma jamoasiga va 3-o'rin 9-YQQ terma jamoasiga nasib etdi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Avaz ORTIQOV,
ShKB OYXTTE bo'limi
boslig'i, podpolkovnik.

BUNI BILISHIMIZ ZARUR!

Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari, yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq, shuningdek, yong'inlarga qarshi kurashish tajribasi, moddalar, materiallar, texnologik jarayonlar, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar, binolar va inshootlarning yong'in xavfliligiga baho berish asosida ishlab chiqiladi.

Moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) mazkur moddalar, materiallar,

buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarining yong'in xavfliligi ko'sratkichlarini, shuningdek, ulardan foydalanishda qo'llaniladigan yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini tegishli texnik hujjatlarda ko'sratishi kerak.

Yong'inlarni o'chirish odamlarning hayotini asrab qolish hamda sog'lig'ini saqlash, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni asrash hamda yong'inlarni bartaraf etish harakatlaridan iboratdir.

S.TURSUNOV, Yangihayot
tumani FV bo'limi boslig'i,
podpolkovnik.

Xorazm viloyati FVB tomonidan Urganch davlat universitetida o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashqida shartli ravishda obyekt hududida yong'in sodir bo'lib, maskan navbatchisi tomonidan zudlik bilan favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tezkor raqamlariga holat bo'yicha xabar berildi.

JANGOVAR SHAYLIK

Bu vaqtga qadar universitet ma'muriyati va ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi yong'inni dastlabki holatida bartaraf qilishga harakat qildi. Navbatchi xodimlar o'quv sinflaridagi va boshqa hududdagi 400 nafarga yaqin talaba va o'qituvchilarni evakuatsiya qilish ishlarni tashkillashirishdi.

Yetib kelgan yong'in-qutqaruvchilar ichkarida qolgan, yordamga muxtoj fuqarolarni qutqarish, ishchi-xizmatchilar va fuqarolarni yong'in o'chog'idan uzoqroqda bo'lishini ta'minlash, avariya-qutqaruv ishlarni olib borish jarayonida jarohat olgannlarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilishga erishdilar.

Voeqa joyida tashkil etilgan tezkor shtab tomonidan yong'in o'chirish ekipajlari yong'in joyiga yo'naltirildi. Shartli yong'in joyi-

dan yong'in-qutqaruv avtonarvonni orqali 5 nafar fuqaro, tan jarohati olib 2 nafar fuqaro yong'in-qutqaruvchilari tomonidan qutqarildi. Jabrlanganlarga esa tez tibbiy yordam xodimlari tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, kasalxonaga olib ketildi.

Shu bilan birgalikda o'quv dars mashg'ulotlari davomida shartli ravishta zilzila sodir bo'linda talabalarning to'g'ri harakatlanishlari borasida tushunchalar berilib, amaliy tarzda ko'rib chiqildi.

Ravshanbek XO'JABOYEV,
Xorazm viloyati FVB
smena boslig'i, mayor.
Hojakbar RUSTAMOV,
bosqarma axborot
xizmati boslig'i,
leytenant.

HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARI

"Hayotiy faoliyat xavfsizligi" kursini o'qitishni takomillashuvi hamda rivojlanishi ta'lif oluvchilarga xavf-xatarlar, prognozlash, favqulodda va xavfli vaziyatlarda xatti-harakatlar to'g'risida tizimli tu-shunchaga ega bo'lish, mana shunday holatlarning oqibatlarini odamlar hayoti hamda sog'lig'iga ta'sirini baholash va ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, xavfsiz xatti-harakatlar algoritmlari ni ishlab chiqish imkonini beradi.

F a v u l o d d a xologik, shuningdek, vatanparvarlik ruhi-da tarbiyalashga e'tibor qaratish zarur. Bularning hammasi tahdid va xavflarni kamaytirishga imkon beradi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur kursning yanada rivojlanishi borasida mamlakatimizda keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilishi darkor. Ayniqsa, yoshlar hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash tizimiga ixtiolar va ilmiy ishlanmalarni, yangi innovatsion g'oyalarni amaliyotga keng tattib etib, favqulodda vaziyatlarning oldini olishda ilmiy izlanishlarni yanada rivojlanishi kerak.

Baxtiyor
MIRZAQOBILOV,
Samarqand viloyati
FVB, HFXO'M katta
o'qituvchisi.

ELEKTR QURILMALARIDAN FOYDALANISH

Elektr dvigatellar, boshqarish, yoqish-boshqarish apparatlari, nazorat o'ichov va himoya asbob-uskunalarini, yordamchi uskunalar va elektr tarmoqlari elektr uskunalarining tuzilishi qoidalari talablariga asosan himoya darajasi, zona sinflariga muvofiq bo'lishi hamda qisqa tutashuv va ortiqcha yuklanishdan himoya qiluvchi vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Yonuvchi tom, ayvonlar (bostirmalar) va yonuvchi materiallar saqlanadigan ochiq omborlar ustidan havo orqali tortiladigan va tashqi elektr uzatgichlarni (sim va kabellar) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Avariya va evakuatsiya yoritgichlar faoliyati markazlashtirilgan holda zaryad oluvchi xonadan boshqarilishi ko'zda utilishi lozim, mazkur xonalar mavjud bo'lmasa, markaziy elektr tokni tarqatish shchitidan yoki uni taqsimlash uskunalar oqali boshqariladi. Bugungi dolzarb masalalardan biri – fuqarolarni yong'in xavfsizligi qoidalari rivoja etishga o'rgatish, aholi ko'p yig'iladigan joylarda bu boradagi kamchiliklarni joyida bartaraf etishdir.

Z.O'RUNOVA,
Toshkent shahar FVB YXTTEB kichik
inspektori, kichik serjant.

АКАДЕМИЯГА ИШГА ТАКЛИФ ЭТАМИЗ!

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисида”ги Низом талабларига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлар сафида контракт асосида ҳарбий хизмат қилишни истаган фуқаролар диккатига:

Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академиясида ҳарбий педагог лавозимларида контракт асосида ҳарбий хизматни ўташ истагини билдирган фуқаролар (ҳарбий хизматни

чила), олий маълумотли (магистр, дипломли мутахассис), илмий даража ва унвонга эга бўлган тибиёт (умумий амалиёт бўйича), кимё, олий математика, информатика, физика, юрист, хуқуқшунос, чет тили (рус тили ва инглиз тили “инглиз тилини билиш даражаси бўйича С1 ва унда юқори даражага эга бўлган”) ҳамда жисмоний тайёргарлик йўналишлари бўйича мутахассисларни ишга таклиф этади.

Мурожаат учун Академия кадрлар бўлими:

71 258-88-81, 71 258-49-93.

Академия ахборот хизмати.



ОРТИНГДА ЎЗБЕКИСТОН

*Тезкор шахмат бўйича
жаҳон чемпиони, гроссмейстер
Нодирбек Абдусатторовга*

Элу юртда нодирсан,
Ақли ўтқир ботирсан,
Зўр ишларга қодирсан,
Чекинмагил, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Майдондаги ҳар “кишт”инг,
Ўзбекона зарб – муштинг,
Жангларда обдон пишдинг,
Бўш келма ҳеч, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Қатор тизиб аскарни,
Олдга ташла лашкарни,
Айланиб ўт хатарни,
Мардана бўл, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Боболарнинг нақли бу,
Ажододларнинг ақли бу,
Келажакнинг ёлқини,
Сен – ёшликсан, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Қанот бўлсин тафаккур,
Етти ўйлаб... дона сур,
Рақиб мотми? Ташаккур!
Сафда илғор, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Фикринг – ўтқир чақмоқдек,
Қалбинг – қайнар булоқдек,
Сурсанг – донанг тўқмоқдек,
Йўл, тадбир топ, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Кўрсат ўзбекнинг кучин,
Олгин тарихлар ўчин,
Онажон – Ватан учун
Зафар кучгин, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Сен ҳам юрт посбонисан,
Миллатнинг ўғлонисан,
Замон қаҳрамонисан!
Ғолиб бўлгин, чемпион,
Орtingda Ўзбекистон!

Салим АШУР.

ҚУТҚАРУВЧИЛИК – ЗИММАМДАГИ МАСЪУЛИЯТ

Бугунги кунда миллий армиямиз ёшларнинг иродасини тоблайдиган, уларни ўз Ватани ва ҳалқига садоқат руҳида тарбиялайдиган жасорат ва матонат мактабига айланди. Шу боис, йигитлар она юртга хизмат қилишни муқаддас бурч, деб биладилар. Юртимизнинг ҳар бир ўғлони учун Ватанини ҳимоя қилиш, бу йўлда хизмат қилиш, нафақат ор-номус, йигитлик бурч, балки шараф ва масъулиятдир. Ҳарбий либоси ярашган йигитлар орасида ФВВ Академияси 3-батальон курсанти Беҳзод Ўринов ҳам бор. Унинг қалбида ҳарбий соҳага нисбатан меҳр ҳисси умумтаълим мактабида ўқиётган пайтларида шаклланди.


– Ниятимга, мақсадимга етганимдан қувончим чексиз, – дейди қаҳрамонимиз. – Энди билдирилган ишончни ҳар жиҳатдан оқлашга, ота-онам юзини ерга қаратмасликка астойдил ҳаракат қиласман. Мен ўз Ватанини ҳимоя қилишни шарафли бурчим, деб биламан. Бу касб ҳар доим, ҳатто тинчлик даврида ҳам аҳамиятлидир. Болалигимда бобом томонидан айтилган “йигитнинг марди майдонда синалади, кураги ер кўрмаган эр-йигит хизматда чиниқади, деган гаплари ҳали-ҳануз қулоғим остида жаранглайди.

Дарвоқе, Беҳзод яна бир воқеа ҳақида тўхталиб ўтишни жоиз билди. Унинг таъкидлашича, айни ёз палласида, жазира маисида, 5 ёшли бола чўмилмоқчи бўлиб анҳорга тушган экан, аммо сузиши билмагани туфайли қийинчилликка дуч келган. Шу пайт қаҳрамонимиз китоб ўқиши билан банд бўлган. Болага кўзи тушиши билан ўзини сувга отган ва сувдан олиб чиқкан. Бола анча вақтдан кейин ҳушига келиб, кўзларини очиб:

– Қутқарувчи ака, сизга раҳмат, ҳаётимни сақлаб қолдингиз, – деган. Шу воқеадан сўнг Б.Ўринов қутқарувчи бўлишга аҳд қилди. Бироз муддат ўтиб, Беҳзод ҳарбий хизматга чақирилди. Хизмати давомида вақтдан унумли фойдаланди. Устозларидан, командирларидан ўзига зарур бўлган мухим билимларни олди. Бу соҳани чуқурроқ ўрганишни бошлади.

– Олий мақсадим муддатли ҳарбий хизматни тамомлаб, ФВВ Академиясининг ёнғин хавфсизлик йўналишида таҳсил олиш эди, – дейди сұхбатдошимиз. – Ҳарбий хизматда ҳар томонлама чиниқдим, маънавий озуқа олдим, спорт билан шуғулландим. Ҳаракатларим, меҳнатларим ўз самарасини берди. Ҳарбий таълим муассасаси курсантига айландим. Энг таъсирли, қалбимни завқлантиргани шу бўлдики, бобомнинг айтган сўзлари ила офицерликка илк қадами қўйдим. Фаҳр ва ғурур билан эгнимга ҳарбий либос кийдим. Бу кийимни оқлаш, юртимнинг дахлсизлигини таъминлаш масъулияти зиммамдаги катта бурчdir.

Дарҳақиқат, офицерлик касби машиқатли, шу билан бирга жуда шарафлидир! Б.Ўринов бўш вақтларида



бадиий мутолаа билан шуғулланади. Асосан, маърифатпарварларимизнинг ҳаёт йўли асарларини, Амир Темур тузуклари, жаҳон адабиёти намуналарини севиб мутолаа қиласми. Билим, кўникмаларини оширади. Изланиш, интилишдан тўхтамайди.

Қолаверса, спорт билан мунтазам шуғулланади. Кўплаб кўрик-танловлар, заковат мусобақаларида қатнашиб келмоқда. Ҳар тонг онасини, бувисини йўқлаб, уларнинг дуоларини олади.

Орадан 4 йил ўтиб ўша болакайни учратди. У Беҳзодни таниди ва бағрига отилди.

– Ақажон, мана энди эгнингиздаги либосингиз кўплаб инсонларни ҳаётини, тинчлигини, фаровонлигини таъминлайди. Мен ҳам сиз каби ҳарбий бўламан, – деди кўзларини порлаб.

Энг мухими, Б.Ўринов танлаган касбидан фахрланади. Амир Темур, Жалолиддин Мангуберди давомчилари эканидан ғурурланади. Юртбошимиз томонидан ёшларга яратилаётган шарт-шароитлар, имкониятлар янги келажакни, аждодларимизга муносиб авлодлар борлигини намойиш қиласми. Маънавияти юксак даражада ривожланган миллатни истиқтоли порлоқ, буюк келажак учун ўзида куч-кудрат топа олади. Тоғни талқон қиласми тинчлиги дахлсизидir.

Рушана РОЗАБОЕВА,
Ўзбекистон журналистика ва
оммавий коммуникациялар
университети ҳарбий журналистика
йўналиши талабаси.



Vaziyat

газетаси

**Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулодда
вазиятлар
вазирлиги**

**Бош муҳаррир в.б.
Азамат СҮЮНОВ**

**Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.**

**Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00**

**Навбатчи:
М.САНАЕВ**

**Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.**

**Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.**

**Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигига 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билин рўйхатга олинган**

ISSN 2091-5292

**Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-үй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67**

**Индекс:
якка обуначилар ва
ташқилотлар учун – 382**

**Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўгалли ота кўчаси, 5-үй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6600 нусха**